
PAXTA HOSILINI YoG'IN - SOCHINLI KUNLARGA QOLDIRMAYLIK!

Erta bahordan beri dalalarimizda katta mehnatlar evaziga halqimiz boyligi bo'lgan oq - oltin yetishtirildi. Uni sovuq kunlarga qoldirmasdan terib olish kerak. Paxta milliy boyligimiz ekanligini xis qilgan xolda tumanimizdagi paxtakor va fermerlar o'zlarining bor kuch g'ayratlarini ishga solib terimni uyushqoqlik bilan olib bormoqdalar.



Tuman hokimi I.Novikov va sektor rahbarlari joylarda bo'lishib, tumanimizdagi fermer xo'jaligi rahbarlari bilan uchrashdilar. Sektor rahablari tomonidan xalqimiz boyligi bo'lgan paxta hosilini yog'in - sochinli kunlarga qoldirmay terib olish hozirgi kunning dolzarb vazifasi ekanligi ta'kidlab o'tildi. Shuningdek, fermer xo'jaligi rahbarlariga terim ishlarini uyushqoqlik bilan yo'lga qo'yish maqsadida bir qator ko'rsatmalar berildi.



Qo'shtepa tuman 1-sektor shtabi.

2020-10-09 08:46:20